

UDK.619:616.993.192.615.22/28

SIGIRLARDA HOMILA YO'LDOSHNING USHLANIB QOLISHINI DAVOLASHDA ROOTIKAN PREPARATINING SAMARASI

Ochilov J.N., kichik ilmiy xodimi

Kuldashev O.U., Ilmiy rahbar vet.fan.doktori, katta ilmiy xodim

Veterinariya ilmiy-tadqiqot instituti

Annotatsiya: Maqolada sigirlar tuqqandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishini davolashda "Rootikan" preparati 100 kg tirik og'irligiga 1 litr, "Ixglyukovit-vet" preparati 50 ml miqdorida bachadon ichiga qo'llanilgandagi samarasi o'rganilgan.

Annotatsiya: В статье изучена эффективность внутриутробного применения препарата «Роотикан» в количестве 1 л на 100 кг живой массы и препарата «Ихглюковит-вет» в количестве 50 мл при лечении плацентарной инфекции. отделение коров после отела.

Summary: The article studied the effectiveness of intrauterine use of the drug "Rootican" in the amount of 1 liter per 100 kg of live weight and the drug "Ixglukovit-vet" in the amount of 50 ml in the treatment of placental infection. separation of cows after calving.

Kalit so'zlar: Sigir, bachadon subinvolyusiyasi, yo'ldosh, atoniya, gipotoniya va rootikan, ixglyukovit-vet, preparat.

Kirish. Oxirgi 5-6 yillik ilmiy-tadqiqotlar va kuzatishlar shuni ko'rsatdiki, sut-tovar fermalarida sigir va qochirish yoshidagi tanalarning sonlari tobora ko'payishi bilan ularning mahsuldorlik ko'rsatgichlari keskin pasayib ketmoqda. Ko'pgina xo'jaliklarda sigirlaro tuqqandan keyin tez kuyga kelmasligi 4-5 oy va undan ham ko'proq qisir qoladi.

Bularning asosiy sabablari oziqa ratsionini tarkibida mikroelementlar (marganes, rux, mis, yod, temir va hok.), vitaminlar (A, D, Ye va boshq.) yetishmasligi, sigirlarning bir joyda yayratmasdan boqilishi va hokazolar. Tuqqandan keyin homila yo'ldoshining ushlanib qolishiga, jinsiy a'zolar gipofunksiyasiga, atoniya, gipotoniya va bachadon subinvolyusiya kasalliklari bilan kasallanishiga olib keladi. Ko'pincha bachadon va boshqa organlar yallig'lanadi, vaqtida samarali usullar bilan davolanmasa surunkali shaklga o'tib, tuxumdonlarning faoliyati (funksiyasini) buzilishi bilan birgalikda pushtsizlik davrini cho'zilishiga olib keladi. Homila yo'ldoshining ushlanib qolishi sigirlarda nafaqat akusher-ginekologik kasalliklari ichida asosiy o'rinlardan biri, umumiy yuqumsiz kasalliklar orasida ham yuqori o'rinlarda turadi. Sigirlarning umumiy akusher-ginekologik kasalliklarining 10-23 % va undan yuqorisini homila yo'ldoshining ushlanib qolishi tashkil etadi.

B.F.Murtazinning ilmiy tadqiqot (2008, 2009, 2013) ma'lumotlariga ko'ra 100 bosh tuqqan sigirga o'rtacha 13-15 boshida homila yo'ldoshini ushlanishi kuzatiladi. Brusellyoz kasalligiga nosog'lom bo'lgan xo'jaliklarda yo'ldosh ushlanib qolishi tug'ish jarayoni normada kechgan sigirlarda 16-21 foizdan 60-70 foizgacha, xomila aborti kuzatilgan sigirlarda esa 95-100 foiz yo'ldosh ushlanib qolishi kuzatiladi.

B.M.Eshbo'riev (2013, 2021) Homila yo'ldoshini ushlanib qolishi sigirlarda nafaqat tuqqandan keyingi akusher-ginekologik kasalliklarni keltirib chiqaradi, bundan tashqari hayvonni mahsuldorligini pasaytiradi, vaqtinchalik yoki bo'lmasa umuman qisir qolishiga va yuqori mahsuldor qoramolni yaroqsiz bo'lishiga hamda oxir-oqibat sepsisga aylanib hayvonni o'limiga sabab bo'ladi. Bachadonda ushlanib qolgan homila yo'ldoshni operativ (qo'l bilan) usulda ajratib olishda bachadonga mikroorganizmlar tushishi ko'payadi, uning asorati sifatida endometritlar, bachadon subinvolyusiyasi va bepustlik kuzatilishi mumkin. Shuning uchun ushlanib qolgan xomila yo'ldoshini ajratishda konservativ usullardan foydalaniladi, bu usullar samara bermaganda homila yo'ldoshni qo'lda operativ yo'l bilan ajratib olinadi. Hayvonlarda homila yo'ldoshni ushlanib qolishini davolashda ikkita konservativ va operativ usullar mavjud. Konservativ davolash

usuli hayvon tuqqanidan so'ng 6 soat o'tgandan keyin boshlanadi, bunda bachadon muskullarini qisqarishini kuchaytiruvchi preparatlar qo'llash natijasida homila yo'ldoshini o'z holicha ajralishini ta'minlaydi.

Homila yo'ldoshini ushlanib qolishini oldini olishda va davolashda har xil preparatlar va shu jumladan neyro-gormonal preparatlar (prozerin, progisteron, sinestrol va boshqalar) qo'llaniladi, lekin ular har doim ham kutiladigan natijalarni bermaydi, chunki kerakli makro va mikro elimentlar yetishmasa sigirlarning organizmida modda almashinuvlari buziladi va har xil ayniqsa jinsiy a'zolarining faoliyatlari keskin pasayib ketishi yoki umuman buzilib ketishiga olib keladi. Akusher-ginekologik kasalliklari ko'pincha sigirlarning homila yo'ldoshi ushlanib qolishiga bog'liq. Shuning uchun ham bu kasallikka jiddiy e'tibor qilinadi.

Sigirlarning homila yo'ldoshining ushlanib qolishini davolash va oldini olish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari Samarqand viloyati Samarqand tumani va Qashqadaryo viloyati Chiroqchi tumanlaridagi chorvachilik fermer xo'jalilarida tajribalar olib borildi.

Bachadon shilliq qavati faoliyatini faollashtiruvchi patogenetik vosita sifatida "Rootikan" va "Ixglyukovit-vet" preparatlarini yo'ldoshni ushlanib qolishini davolovchi samarasi uch kun davomida sinab o'rganildi. 1-tajriba guruhida bo'lgan sigirlarga "Rootikan" preparati qo'llanilgandan so'ng 1-kunida 2 bosh sigirni, 2-kunida 2 bosh sigirni va uchunchi kunida 1 bosh sigirda yo'ldoshi o'zi tushgan bo'lsa, 2-tajriba guruhidagi sigirlarga "Ixglyukovit-vet" preparati qo'llanilgandan so'ng 1-kunida 2 bosh sigirni, 2-kunida 1 bosh sigirni va uchunchi kunida 1 bosh sigirda yo'ldoshi o'zi tushdi va to'rtinchi kuni 1 bosh sigirning yo'ldoshi opirativ (qo'l bilan) ajratib olingan bo'lsa 3-nazoratda bo'lgan sigirlarda 2-kunida 3 bosh sigirni yo'ldoshi tushgan bo'lsa, 4-kuni 2 bosh sigirning yo'ldoshi opirativ (qo'l bilan) olib tashlandi.



Samarqand tumanidagi Guljaxon chovachilik fermer xo'jaligida sigirdan homila yo'ldoshini ajratib olish jarayoni

Sigirlarda yo'ldosh ushlanib qolishini davolashda “Rootikan”, va “Yodopen” preparatlarini samarasi

Группы	Sigirlar bosh soni vaqo'llanilgan dorilar nomi, miqdori	Davolash samaradorligi						
		Davo lash muddati, kun	Yo'ldoshi tushdi		Urug'lantirildi		Otalandi	
			soni	%	soni	%	soni	%
I tajriba	5 bosh “Rootikan” 100 kg/t.o. 1 litr bachadon ichiga	3	5	100	5	100	4	80,0
II tajriba	5 bosh “Ixglyukovit-vet” preparati 50 ml bachadon ichiga	3	4	80,0	5	100	4	80,0
II nazorat	5 bosh “Yodopen” preparati 1 dona tabletka bachadon ichiga	3	3	60,0	3	100	3	60,0

Tadqiqotlar jarayonida 1-tajriba guruhida bo'lgan sigirlarda “Rootikan” preparati qo'llanilgan yo'ldoshi ushlanib qolgan sigirlarda preparat 4 marta qo'llanilganda barcha sigirlarda yo'ldosh 3-kunida tushganligi 100 % samara bergan bo'lsa, 2-tajriba guruhidagi sigirlarga “Ixglyukovit-vet” preparati qo'llanilganda 3-kun davomida 4 bosh (80 %) sigirlarda yo'ldoshni o'zi ajralib tushganligi va 1 bosh (20 %) sigirning yo'ldoshi opirativ (qo'l bilan) ajratib olindi. Nazorat guruhida bo'lgan sigirlarda 60,0 % samara berganligi tajribalarda aniqlandi.

Yo'ldoshi ushlanib qolgan sigirlarga yo'ldoshini tabiiy tushishini ta'minlashda qo'llanilgan “Rootikan” va “Ixglyukovit-vet” preparatlari yo'ldoshni tushirish bilan birgalikda bachadon involyusiyasini tezlashtiradi, servis davrini qisqartiradi va kuyga kelib otalanish darajasini oshirishini kuzatdik.

Laboratoriyada tayyorlangan “Rootikan” va “Ixglyukovit-vet” preparatlari sigirlar bachadoniga tushgandan so'ng bachadon shilliq qavati faoliyatini faollashtiradi ya'ni u erdagi fermentasiya jarayonini kuchaytiradi, kislota-ishqor muozanatini saqlab, bachadon shilliq qavatidan zaxarli moddalarni so'rilishini susaytiradi, katilidonlarni shishishini oldini oladi, yallig'langan to'qimalarni tiklanishida va mikroorganizmlarni rivojlanishini oldini olishda hamda shilliq qavatdagi suyuqlik ishlab chiqaruvchi bezlarga ijobiy ta'sir qilib, apokrin va golokrin fermentasiya jarayonini kuchaytirishda yuqori samara beradi.

Olib borilgan tadqiqotlar natijasida, sigirlardagi tuqqandan keyingi yo'ldosh ushlanib qolishini davolashda umumiy davolash usuliga qo'shimcha “Rootikan” va “Ixglyukovit-vet” preparatlarini bachadon ichiga yuborib davolash yuqori samara berishi tajribada isbotlandi.

Xulosa: Tajribadan ma'lumki tuqqandan so'ng “Rootikan” preparatini uch kun davomida 100 kg tirik og'irligiga 1 litr miqdorida bachadon ichiga yuborilganda yo'ldoshni o'zi ajralib tushganligi (100 %) va servis davrining qisqa bo'lishi va 4 bosh sigirlar otalangani (80 %), “Ixglyukovit-vet” preparatini uch kun davomida 50 ml dan bachadon ichiga yuborilganda 4 bosh sigirlarda yo'ldoshni o'zi ajralib tushganligi va 1 bosh sigirda yo'ldosh qo'l bilan ajratib olingan bo'lsada, servis davri qisqa bo'lib, 4 bosh (80 %) sigirlar otalandi. Nazorat guruhida esa 2 bosh sigirda homila yo'ldoshini ushlanishi kuzatilib, faqat 3 bosh sigir yani otalandi va 2 bosh sigir qisir qoldi. Yuqoridagilarni inobatga olib sigirlarning tug'ishdan keyingi homila yo'ldoshi ushlanib qolishini davolash va tuqqanidan keyin kuyga kelishi kunlarini qisqartirishda, “Rootikan” va “Ixglyukovit-vet” preparatlarini tuqqanidan so'ng bachadon ichiga yuborib qo'llanilganda ijobiy natijalar olindi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Baliev, S., & Ochilov, J. (2023). Treatment of Retained Placenta in Cows. *Global Scientific Review*, 11, 15-19.
2. Qo'ldoshev, O. U., & Ochilov, J. N. (2022). THE EFFECT OF MICROCLIMATE ON THE SEXUAL MATURITY OF COWS. *Conferencea*, 114-115.
3. Nasirdinovich, A. J., & Urazovich, K. O. (2024, June). PREGNANCY IN COWS EFFECTIVENESS OF FERTADINE IN PREVENTING STAY. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 5, pp. 146-148).
4. Nasirdinovich, A. J., & Urazovich, K. O. (2024, May). PREGNANCY IN COWS THE EFFECTIVENESS OF THE GONADIN DRUG IN PREVENTING STAY. In *International Conference on Adaptive Learning Technologies* (Vol. 5, pp. 149-151).
5. Kuldashiev, O. U. (2024). PREVENTION OF PLACE RETENTION IN COWS. *Web of Semantics: Journal of Interdisciplinary Science*, 2(5), 471-474.
6. Кулдошев, О. У. (1996). Сравнительная эффективность некоторых препаратов при пироплазмидозах крупного рогатого скота и возможности профилактики (экспериментальные исследования).
7. Болиев, Ш. К., & Кулдашев, О. У. (2018). СТИМУЛИРОВАНИЕ ВОСПРОИЗВОДИТЕЛЬНОЙ ФУНКЦИИ У КОРОВ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 120-122).
8. Кулдашев, О. У. (2022, April). ЛЕЧЕНИЯ И ПРОФИЛАКТИКИ ХРОНИЧЕСКИЙ ЭНДОМЕТРИТА У КОРОВ. In *E Conference Zone* (pp. 107-110).
9. Кулдашев, О., Очилов, Ж., & Хамракулов, Н. (2022). Влияние зоогигиенических и технологических режимов на организм животных в условиях жаркого климата. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 176-182.
10. Исаев, М., Кулдошев, О., & Акмалов, Ш. (2022). Вредное воздействие зерноотходов на кроликов. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 120-122.
11. Исаев, М., & Кулдошев, О. (2022). Эффективность гидролизата белка при лечении незаразных болезней телят. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(1), 123-125.
12. Кулдашев, О. У., Мавлонов, С. И., Исаев, М. Т., Очилов, Ж. Н., & Хамракулов, Н. Ш. (2021). НОВОЕ СРЕДСТВО ДЛЯ ПРОФИЛАКТИКИ ЗАДЕРЖАНИЯ ПОСЛЕДА У КОРОВ. In *НАУЧНОЕ ОБЕСПЕЧЕНИЕ УСТОЙЧИВОГО РАЗВИТИЯ АГРОПРОМЫШЛЕННОГО КОМПЛЕКСА* (pp. 1387-1390).
13. Кулдашев, О. У. (2018). СИМПТОМАТИЧЕСКОГО БЕСПЛОДИЯ КРУПНОГО РОГАТОГО СКОТА В УЗБЕКИСТАНЕ. In *НАУКА XXI ВЕКА-ВЗГЛЯД В БУДУЩЕЕ* (pp. 125-128).
14. Кулдашев, О. Х., & Муминов, К. З. (2017). УСТРОЙСТВА ДЛЯ ОБЕСПЕЧЕНИЯ ИНФОРМАЦИОННОЙ БЕЗОПАСНОСТИ В ВОЛОКОННО-ОПТИЧЕСКОЙ ЛИНИИ СВЯЗИ. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 234-236).
15. Кулдашев, О. Х., & Муминов, К. З. (2017). Однонаправленный синхронный режим распространения информационных и шумовых сигналов в оптическом волокне. In *Перспективные информационные технологии (ПИТ 2017)* (pp. 231-234).
16. Балиев, Ш., Шералиева, С., & Муртазин, Б. (2015). Профилактика послеродовых осложнений у коров. in *Library*, 1(4), 79-81.
17. Эшбуриев, Б., & Балиев, Ш. (2022). Сигирларда эндометритни даволашда “карбаказ” препаратининг самарадорлиги. *Перспективы развития ветеринарной науки и её роль в обеспечении пищевой безопасности*, 1(2), 339-345.
18. Муртазин, Б., Элмурадов, Б., Болиев, Ш., Наврузов, Н., & Шералиева, С. (2013). Лечение и профилактика гинекологических заболеваний у коров. *Ветеринарна медицина*, (97), 337-338.

19. Балиев, Ш., & Очилов, Ж. (2023). Лечение задержки плаценты у коров. *in Library*, 1(1), 15-19.
20. Балиев, Ш. (2023). Организация акушерско-гинекологической диспансерной работы в животноводстве. *in Library*, 1(2), 205-206.
21. Балиев, Ш., & Эшбуриев, Б. (2022). Эффективность препарата карбаказы при лечении эндометрита у коров. *in Library*, 22(3), 339-345.
22. Балиев, Ш., & Суванов, С. (2022). Современные методы лечения эндометрита у продуктивных коров. *in Library*, 22(3), 25-27.
23. Балиев, Ш., Суванов, С., & Исмоилов, А. (2022). Причины эндометрита у продуктивных коров, содержащихся в хозяйствах. *in Library*, 22(2), 56-58.
24. Балиев, Ш., Муртазин, Б., Кулдашев, О., & Очилов, Ж. (2017). Значение биологических препаратов в профилактике бесплодия крупного рогатого скота. *in Library*, 17(2), 32-34.
25. Балиев, Ш., Кулдошев, О., Мавланов, С., & Курбонов, Ф. (2016). Определение эффективности препаратов при лечении мастита. *in Library*, 16(2), 63-65.
26. Балиев, Ш., Муртазин, Б., Мавлонов, С., & Шералиева, С. (2013). Активизация половой активности коров естественными средствами и методами. *in Library*, 3(3), 20-24.
27. Рузимуродов, М., Улугмурадов, А., & Саидов, А. (2020). Совершенствование аллергодиагностики животных при условия Узбекистана. *in Library*, 20(3), 1-5.
28. Рузимуродов, М., Улугмурадов, А., & Саидов, А. (2020). Совершенствование метода аллергической диагностики бруцеллеза животных в условиях Узбекистана. *in Library*, 20(2), 108-111.
29. Рузимуродов, М., & Улугмурадов, А. (2020). Некоторые вопросы изучения бруцеллеза в Узбекистане. *in Library*, 20(3), 1-6.
30. Рузимуродов, М., Ахмадалиева, Л., & Улугмурадов, А. (2019). Анализ способов диагностики бруцеллёза у овец и коз и препаратов для проведения противобруцеллёзных мероприятий. *in Library*, 19(3), 389-392.
31. Рузимуродов, М., Улугмурадов, А., Саттаров, У., & Саидов, А. (2019). Меры борьбы и профилактики бруцеллеза животных в животноводческих хозяйствах. *in Library*, 19(2), 60-62.
32. Рузимуродов, М., & Улугмурадов, А. (2019). Изучение свойств селектированных в Узбекистане штаммов бруцелл предназначенных для изготовления вакцин и диагностикумов. *in Library*, 19(2), 287-289.
33. Рузимуродов, М., Маматкулов, И., & Игнатов, П. (2018). Бруцеллёзная искусственная вакцина (бив) для профилактики бруцеллёза животных. *in Library*, 18(2), 145-147.
34. Рузимуродов, М. (2018). Новые инновационные подходы в борьбе с бруцеллёзом. *in Library*, 18(2), 14-16.
35. Рузимуродов, М., Мамадуллаев, Г., Тухлиев, А., & Рахимов, А. (2016). Специфическая активность ППД туберкулинового диагноста. *in Library*, 16(1), 14-15.
36. Рузимуродов, М., Баженов, Л., Артемова, Е., & Тен, Р. (2008). Использование кристаллогенных свойств бруцелл для их идентификации и дифференциации. *in Library*, 3(3), 21-22.
37. Баженов, Л. Г., Рузимуродов, М. А., Артемова, Е. В., & Тен, Р. М. (2008). Изучение и использование кристаллогенных свойств бруцелл для их идентификации и дифференциации. *Bulletin of the International Scientific Surgical Association*, 3(1), 21-22.
38. Джураев, О., Мамадуллаев, Г., & Рузимуродов, М. (1999). Сравнительная эффективность ППД-туберкулина и SKJ-туберкулина в аллергодиагностике туберкулеза крупного рогатого скота. *in Library*, 1(1), 109-111.
39. Рузимуродов, М., & Улугмурадов, А. (2023). Дезинфекционные мероприятия при бруцеллезе животных (анализ литературы). *in Library*, 4(4), 8-10.
40. Улугмурадов, А. Д., Рузимуродов, М. А., & Мухтаров, Ф. Н. (2023). ИСТОРИЯАЛЛЕРГОДИАГНОСТИКИБРУЦЕЛЛЕЗАЖИВОТНЫХ. *Scientific Impulse*, 1(9), 820-823.